



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

2022 YIL 28 NOYABR



TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN KATTA TADBIR O'TKAZILDI

Toshkent shahar yoshlar markazida "Tibbiyot xodimlari kuni" munosabati bilan tadbir tashkillashtirildi.

Unda Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanov so'zga chiqib, o'z kasbiga fidoyi bo'lgan kasb egalarini – Akademiya ma'muriyati va jamoasi nomidan samimiy qutlab, xalq salomatligi yo'lidagi ishlari hamisha bardavom bo'lishini tiladi.

Aytish joizki, tashkil etilgan mazkur bayram tadbirida 35 nafar Akademiya professor-o'qituvchilari va xodimlari diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, mazkur musiqiy-badiiy tadbir orqali shifokorlarning jamiyatimizda tutgan o'rni, nufuzi e'tirof etildi. Yo'ldoshi fidokorona mehnat bo'lgan shifokorlar sha'niga eng samimiy tilaklar yangradi.

El ardog'idagi san'atkorlarning kuy-qo'shiqlari yig'ilganlarga bayram kayfiyatini ularshdi.

TTA Matbuot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, ko'plab salomatlik posbonlari qatorida Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasi bolalar allergonevrologiya bo'limi kichik tibbiy xodimi Yusupova Bates Adenbayevna «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va jamoasi mukofotlanganlarni samimiy qutlab qoladi. Kelgusidagi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaydi.

Hikmat



Shifokorlar har davrning qahramoni hisoblanadi.

Hikmat



18 noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

BAYROQ – HURLIK VA EZGULIK RAMZI



Bayroq – bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'aladir. U o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istiklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmono'stlikni mujassam etgan.

Qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham dunyo mamlakatlariagi ko'plab elchixonalarimiz binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida bayrog'imiz O'zbekiston ramzi bo'lib turibdi.

Davlatimiz rahbarlari sharafiga boshqa davlatlarda yurtimiz bayrog'i ko'tarilganida, xorij safarlarida, o'zga davlatlar hududida O'zbekistonimiz bayrog'i ko'rorganimizda, nufuzli xalqaro sport anjumanlarida mamlakatimiz bayrog'i hilpiraganida odamning qalbi allanechuk bo'lib ketadi.

Vatan hissini yurakdan tuygan har bir inson borki, yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uning hurmat va sharafini chin qalbdan e'zozlaydi. Zero milliy bayrog'imiz – mamlakatimiz suverenitetining oly ramzi bo'lib, xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

ISTIQBOLLI REJALAR YO'LGA QO'YILADI

Toshkent tibbiyot akademiyasiga Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahri gubernator o'rinosbosari O.Ergashev tashrif buyurdi.

Tashrif davomida taniqli olim, professor O.Ergashev Akademiya faoliyatini to'liq raqamlashtirilayotganini alohida e'tirof etdi.

Uchrashev so'nggida hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, ilmiy, yosh olim va talabalar uchun bir qancha istiqbolli rejalarни yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Milliy bayrog'iz 1991 yil 18 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida, «O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrogi'ni to'g'risida»gi qonuni bilan qabul qilingan edi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, do-nishmandlikni, halollikni, shon-shuhurat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlardan navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

Sohibqiron Amir Temur davrida ham davlat bayrog'i katta ijtimoiy-siyosiy, ma'haviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etgan. "Temur tuzuklari"da keltirilishicha, dushman ustidan shioat va mardlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amirlar va sipohiyilar davlat timsollari – bayroq va nog'ora bilan mukofotlanganlar. Bu Sohibqiron salnatida davlat ramzları nechog'lik qadranganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i barchamizning g'ururimiz va faxrimizdir. Davlat ramzlarini hurmat qilmay turib, biz o'z xalqimizning millat sifatidagi o'rnini, O'zbekistonning butun jahon mamlakatlaridan biri, tenglar ichra teng ekanligini idrok qila olmaymiz.

Mag'rur hilpirayotgan bayrog'imiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-obodlik, millatlararo totuvlik, qut-baraka, biz erishayotgan bemisl yutuqlar va kelajakka bo'lgan mustahkam ishonch ramzi sifatida qalbimizga tuga-nmas iftixor bag'ishlaydi. Farzandalarda bayroqqa – Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi, bola ota-ona bilan bayroqqa birdek mehr qo'yib voyaga yetadi, ota-onasiga qanday sadoqatli bo'lsa, bayroqqa, Vatanga ham shunday sadoqatli bo'ladi.

Hamidulla MAGZUMOV,
dotsent,
Ilmira IMAMOVA,
katta o'qituvchi



BOSH QOMUSIMIZ KONSTITUTSIYA – YANGI O'ZBEKISTONNING HUQUQIY POYDEVORI

“Hayotimiz qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarda erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori”.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti


Har bir zamonaviy davlatda uning Konstitutsiyasi fuqarolar, jamiyat va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda asosiy tamoyillarini belgilaydi.

1992 yilda qabul qilingan mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi ham aynan shu maqsadga xizmat qilib, uni ishlab chiqishda mamlakatimiz ko‘p asrlar davomida to‘plagan davlatchilikni rivojlantirish tajribasi, an‘analari va qadriyatlari bilan bir qatorda, ushbu sohadagi xalqaro e’tirof etilgan demokratik g’oya va tamoyillar hamda ularning asl mohiyatini o‘zida jamlagan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga asos qilib olingan.

Konstitutsiyamizning uzviy tarkibiy qismi sifatida shaxs erkinligi va huquqlari fuqarolarning ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga qaratilgan normalar belgilangan. Xususan, fuqarolar bepul umumiyy ta’lim olishi, har kimga ilmiy va texnikaviy ijod qilish erkinligi kafolatlanganligi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish ko‘rsatilgan. Bunday huquqiy normalarni ishlashini, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda, mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, xalq farovonligini izchil oshirib borish, jamiyatni modernizatsiya qilish, jahon hamjamatiyada munosib o‘rin egallashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Bu islohotlar natijasida yurtimizda inson sha’ni va sharafi xalq uchun qayg‘urish, bir so‘z bilan aytganda islohotlar insonlar va ularning manfaatlari, huquq erkinliklari, kelajagidagi farovon hayotini kafolatlaydi. Xalq farovonligini oshirish bobidagi siyosat “Yangi O‘zbekiston”ning bosh g‘oyasiga aylandi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim jarayon ketmoqda. Mamlakatning demokratik islohotlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritish, Konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda eng avvalo qonun ijodkorligi faoliyatidagi oldingi bosqichda jamoatchilik fikrini o‘rganish jarayoni, Konstitutsiyaga Yangi O‘zbekistoni barqaror rivojlanishida davlat taqdiri uchun fuqarolarning daxldorlik javobgarlik hissidan dalolat beradi. Jamoatchilik fikri so‘rovining tahlili shuni ko‘satadi, Konstitutsiyada aks ettirilishi lozim bo‘lgan asosiy dolzarb yo‘nalishlar bu davlat boshqaruvi tizimini takomillashirish, umuminsoniy, milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga alohida e’tibor berish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik huquqlarni amalga oshirish kabi muhim yo‘nalishlar bilan bir qatorda, xususiy mulk muhofazasini kuchaytirish, amalga oshirilayotgan barcha konstitutsiyaviy o‘zgarishlarda oliy maqsad fuqarolar uchun munosib turmush sharoitini yaratishdan iboratdir.

Jamiyatni kuzatadigan bo‘lsak, bu g‘oyalar hayotda o‘z tasdigini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi poydevorida amalga oshirilayotgan



islohotlar, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida insonning barcha huquqlari qatorida, ta’lim olish huquqiga bo‘lgan munosabat yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida maktabgacha ta’limdan to oliy ta’limning eng so‘nggi bosqichiga bo‘lgan uzluksiz tizimining barcha bo‘g‘inlari isloh qilindi. Hozirgi kunda mamlakatimiz olyigohlarining soni 150 tadan ortiq bo‘lib, so‘nggi besh yillikda davlat byudjetidan ilm-fanga ajratilgan mablag‘lar qariyb 4 marta oshirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev g‘oyasi bilan ilmiy innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash, uning natijalarini amaliyotga keng va samarali tatbiq etilishini ta’minlovchi maxsus davlat organi – Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi.

Ushbu buyuk maqsadlarga erishish inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan sa‘y-harakat bilan uyg‘unlikda olib borildi. Zero, qayerdaki inson huquq manfaatlari to‘liq ta’minlansa, o’sha jamiyat ahli ulug‘vor g‘oyalar atrofiga birlashadi va mamlakat taraqqiyotiyo‘lida fidoiylik ko‘rsatadi.

Sh.YUNUSOVA,
TTA akademik litseyi ijtimoiy fanlar
kafedrasи mudiri



«O'ZBEKISTONDA BARIATRIK VA METABOLIK XIRURGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI» MAVZUSIDA XALQARO ILMUY-AMALIY KONFERENSIYA

«O'zbekistonda bariatrik va metabolik xirurgianing rivojlanish istiqbollari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Darhaqiqat, ortiqcha vazn va semirish butun dunyo, jumladan, O'zbekistonning sog'liqni saqlash tizimidagi global muamolardan biridir. JSST hisobotida qayd etilganidek, Markazi Osiyo va Yevropada ortiqcha vazn kattalarining uchdan ikki qismi va bolalarning uchdan bir qismiga ta'sir qiladi. Bu qandil diabet, yurak kasalliklari, nogironlik va erta o'lif xavfini oshiradi.

Anjuman dasturida ushbu muammoning eng dolzarb masalalari o'rinn oldi. TTA Jarrohlik kasalliklari kafedrasi xodimlari va O'zbekiston bariatrik va metabolik xirurglar assotsiatsiyasi raisi O.Teshayev tomonidan bariatrik jarrohlik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash dasturi ishlab chiqilib, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Mutaxassislarni tayyorlash faol olib borilmoida. Bundan tashqari, kafedra xodimlari semirishning jarrohlik usullarini joriy etish bo'yicha viloyat markazlarida

mahorat darslari – ko'rgazmali operatsiyalarni o'tkazmoqda.

Konferensiyaning xorijlik ishtirokchilar ishtirokida jonli jarrohlikning ajoyib usullari amaliy tarzda namoyish etildi.

Ushbu konferensiya doirasida ishtirokchilar bilim va tajriba almashish, shuningdek, ilg'or ilmiy ishlamalar bilan tanishish va xavflarni tahlil qilish va davolashning jarrohlik usullarining oldini olishning dolzarb masalalarini har tomonlama muhokama qilish uchun noyob imkoniyatga ega bo'lishdi. Bu konferensiya ortiqcha vazn, semirish va uning oqibatlariga qarshi kurashda ushbu yo'nalishni rivojlantirishga yana bir turtki bo'ldi. Mazkur konferensiya dasturi nafaqat ortiqcha vaznli odamlarga tibbiy yordam ko'sratishning turli klinik jihatlarini, balki ushbu patologiya va semirish bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishining fundamental jihatlarini ham o'z ichiga olgan.

TIBBIYOT TURIZMI – IQTISODIMIZ POYDEVORI

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzida bir yilda 40 millionga yaqin odam shifo izlab, boshqa davlat va hududlarga boradi.

Har yili tibbiyot turizmi uchun 120 mlrd. atrofida AQSH dollarri sarflanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy o'sishlari bilan birga sog'liqni saqlash tizimi va meditsinasi misli ko'rilmagan darajada yaxshilandi, takomilashdi. O'nlab turli xastaliklarni davolashga ixtisoslashgan xususiy klinikalar va davlat tashkilotlari ochildi, tibbiy ta'lif isloh qilinib, bo'lg'usi tib xodimlarining malaka va ko'nikmalari, nazari bilim va amaliy salohiyatlari mukammallahashdi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 12 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan keyin xalq tabobatiga keng yo'l ochildi, bu esa zamonaviy meditsinani mukammal egallagan olim va shifokorlarimiz zamonaviy meditsinadagi malakalarini xalq tabobati bilan integrallash imkonini berdi. Bularning barchasi shifokorlarimizga yetarlicha motivatsiya berib, ilmlarini oshirishga sharoit tug'dirdi. O'z bilim va malakalarini, shifokorlik hulqi-odobi, tibbiy deontologiya hamda kasb etikasiga amal qilgani uchun ayrim mutaxassislarimizga olis va yaqin xorij davlatlaridan ko'plab shifotablar kela boshladi. Bu esa O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shdii. Chunki kelgan bemorlar o'z davo diagnostik muolajalarini olganlaridan

keyin Respublikamizning ko'plab muqaddas qadamjolari va diqqatga sazovor osori atiqalarini ziyorat qilish imkoniga ega bo'dilar. Ana shunday xodimlar orasida Akademiyamiz professor-o'qituvchilari borligi ham tahsinga sazovor.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Tibbiy turizm assotsiatsiyasi hamkorlikda 2021 yili mazkur sohaga o'z munosib hissasini qo'shgan fuqarolarni taqdirlash to'g'risida qaror qabul qilgan edi. Akademiyamiz xodimlaridan Umumiylar bolalar jarrohligi kafedrasida faoliyat yurtuvchi Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi, Xalqaro Ekologiya i zdorovye cheloveka ilmiy Akademiyasi akademigi, oliy toifali jarroh Alijon Faqirov Zohidovich va Klinik allergologiya va immunologiya kafedrasidan tibbiyot fanlari nomzodi Nargiza Aydarova Po'latovna Tibbiyot xodimlari bayrami kuni "O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni hamda qimatbaho sovg'alarga munosib deb topildi. Jumladan, zamonaviy meditsinaga tibbiy Nabaviya, xalq tabobatini integrallashtirib olib borayotgan shifokor Alijon Faqirov bir yil mobaynida olis va yaqin xorij davlatlaridan ikki mingga yaqin bemorlarni qabul qilib, dardlariga malham bo'lish bilan birga Respublikamizdagи tibbiy turizmni rivojlantirish uchun salohiyatlari hissa qo'shgan.



Akademiyamiz nomidan va "Tibbiyotnomma" oynomamiz tahrir hay'ati nomidan o'z kasbiga har tomonlama sodiq va mukofotlarga munosib xodimlarimizni tabriklab, kelajakda Akademiyamizning boshqa xodimlari ham yuksak mukofotlarga musharraf bo'lishini tilaymiz.

**Qutbiddin NIZOMOV,
Sog'liqni saqlash a'lochisi, Xalqaro antik
dunyo akademiyasi akademigi,
Hojiyakbar USMONOV,
TMA Umumiylar bolalar jarrohligi
kafedrasi o'quv ishlari bo'yicha mas'ul
xodimi**



Tiriklikning davomiyligi, insoniyat, nabotot, hayvonot olamining taqdiri, avvalo, ekologik soflikka bog'liq.

Afsuski, tabiatdagi ana shu ekologik muvozanat kun sayin yemirilmogda. Shu boisdan endilikda atrof-muhit muhofazasi - havo, suv, tupoq, o'simliklar, hayvonlarni asrab-avaylash, ularning turi va tarkiblarining yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymasdan, sofligicha saqlab, kelgusi avlodlarga yetkazish dunyo miyosida umuminsoniy masalaga aylandi.

Bugungi kunda respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha 30 ga yaqin muhim qonun va yuzlab qonunosti normativ hujjatlar qabul qilindi. Konsepsiya asosida ishlab chiqilgan hamda 2013 yilning 28 dekabridan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar ning muhim bir bosqichi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, avvalo aholi salomatligi atrof-muhitning musaffoli-giga bog'liqidir. Aholining qulay tabiiy sharo-itda ekologik toza muhitda yashab, faoliyat olib borishi natijasida ularning yashash tarzi ijobjiyashib, salomatligi yaxshilanadi, qolaversa ish, o'qish va mehnatga bo'lgan ishtiyoqi oshib boraveradi. Ekologik sog'lom muhitni yaratishga erishish uchun dastlab atrof-muhit muhofazasini yaxshilab olish zarur. Shundagina insoniyat uchun sog'lom muhit yaratilib, ularning sog'lagini yaxshilashga erisha olishimiz mumkin. Inson salomatligi har narsadan ustun turuvchi muhim masaladir. Mamlakatimiz mustaqil-likka erishgan kunlardan boshlab, aholining jismonan va ma'nana sog'lom hayotini

ta'minlash maqsadida sog'lom tur mush tarzini yaxshilash, har tomonlama zamonaviy tibbiy jihozlar, sifatlari tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish, bepul tibbiy ko'rknini chuqurraq takomillashtirish kabi vazifalarini o'z oldiga maqsad qilib amaliyotda buning isboti namoyon bo'lmoqda.

Bu borada ayniqsa yoshlar o'rtasida ularning ekologik savodxonligi, madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida ko'plab targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi-da olib borilayotgan ishlar, ot'kazilayotgan

va ularni amaliyotda tatbiq etish kabi masalalar bo'yicha fikr va mulohazalar bildirildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish har bir insonning burchi va vazifasidir. Bunda yoshlarning roli juda katta ahamiyatga egaligi, ularning yurtga bo'lgan sadoqati, mehr-muhabbati atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yanada kuchaytirish va shu kabi yoshlarni safini kengaytirish, shu munosabatda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini muhofaza qilishda yoshlarning rolini oshirish kabi masalalar aytib o'tildi.

Davra suhbatlaridan so'ng xulosha sifatida yoshlarga qara shunday deymiz:

Atrof-muhitni asrab-avaylash, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish har birimizning burchimizdir, shunday ekan, har bir fuqaro tabiatga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bolishi zarur. Bunda yurdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tabiatni asraylik!

Insoniyat paydo bo'libdiki, barchamiz shu zamin bag'rida unib-o'sib, voyaga yetmoqdamiz. Bizdan mehrini aymay, bor boyligini in'om etayotgan tabiatni asrab-avaylash, kelajak avlod haqida qayg'urish har birimizning vazifamizdir. Chunonchi, ota-bobolarimiz azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatgan. Hatto bitiklar, tarixiy asarlarda ham atrof-muhit, uni asrab-avaylash butun insoniyatning eng asosiy burchlaridan biri ekanligi alohida tilga olingan.

L.ABDUQODIROVA,
dotsent,
M.MIRSAGATOVA,
assistant

EKOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGI

davra suhbatlari shular jumlasidan.

Bu kabi tadbirdorda O'zbekiston Ekologik harakatining hududiy bo'linmalari vakillari, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga mutaxassislari, Toshkent tibbiyot akademiyasi olimlari va keng ja-moatchilik vakillari ishtirok etmoqda. Davra suhbatlarida bo'lg'usi tibbiyot xodimlari, ya'ni talaba-yoshlar e'tiborini ekologik muammolar va ularni bartaraf etishga, shu orqali aholi sog'lig'i yaxshilashga qaratish, atrof-muhit ozodaligi yo'lida olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish masalalariga bag'ishlangan muammolar ko'tarilmoqda. Shuningdek, davra suhbatlari davomida tadbir ishtirokchilariga inson salomatligida ekologiyaning o'rni va roli qay darajada muhimligi, ekologik ta'lim tarbiyani rivojlantirish, yoshlarning ekologik mada-niyatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar

AKADEMIYA TALABASI 60 000 000 SO'MLIK GRANT SOHIBASI BO'LDI

Toshkent tibbiyot akademiyasining tibbiy pedagogika fakulteti 6-kurs talabasi Shahloxon G'ulomova Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan «Biznesga birinchi qadam» tanlovining Respublika bosqichi g'olib bo'ldi. Tanlov tashkilotchilari tomonidan 60 000 000 so'mlik grant bilan taqdirlandi.

Iqtidorli talabamiz ushbu tanlovda o'zining «BioPropolis» loyihasi bilan ishtirok etdi. Bu loyiha propolisidan turli xil tabiiy dori vositalari ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ko'plab kasalliklarni, shu

jumladan: gemaroy, turli teri kasalliklari, stomatit va gingivit kabi kasalliklarni davolovchi ta'sirga ega.

Ma'lumot o'rniда aytish joizki, Shahloxon G'ulomova joriy yilda TTA tomonidan ta'sis etilgan

Akademik Abdullaxo'jaeva Malika Samatovna nomidagi stipendiyasi sohibasi va «Yil talabasi – 2022» tanlovining «Yilning eng namunali tadbirkor talabasi» nominatsiyasi ni qo'lga kiritgan.



SOHA FIDOYISI

*Toshkent tibbiyot akademiyasi professori Mirtazayev
Omon Mirtazayevning umr yo'llariga chizgilar*

**Yurtimizda tibbiyot
rivojiga samarali
faoliyati va fidokorona
mehnati bilan
munosib hissa qo'shib
kelayotgan soha
fidoyilarini ko'plab
topish mumkin.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi professori Omon Mirtazayev Mirtazayevich ko'p yillar davomida tibbiyot sohasi rivojiga hissa qo'shgan olimlardan biri hisoblanadi. Olimning faoliyati asosan epidemiologiya sohasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, yuqumli ichak infeksiyalarining epidemiologiyasi va profilaktikasi bilan bog'liq.

Soha fidoyisi bo'lgan ustozning umr yo'llariga boqib ilm-fanga qo'shgan hissasini alohida e'tirof etish lozim. 1993 yilida ba'zi viloyatlar hududida poliomiyelit, difteriya kasalliklarining hamda 1998 yili Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida qorin tifi kasalligining epidemik avj olishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Bosh epidemiologi, Ikkinch Toshkent Davlat tibbiyot institutining epidemiologiya kafedrasini mudiri O.Mirtazayev uchun muhim sinov bo'ldi. Kasallik tarqalishining birinchi kunlarida noq O.Mirtazayev amaliyot shifokorlari bilan birqalikda kasallikka qarshi kurashning birinchi safida turdi. Ular tavsija qilgan laboratoriya tashxisini yo'lga qo'yish bo'yicha tashkiliy masalalar hamda ushbu kasalliklar profilaktikasi va tarqalishining oldini olish bo'yicha

ilmiy asoslangan tavsiyalar amaliyotda qo'llandi.

1992 yili O.Mirtazayevga epidemiologiya kafedrasini bo'yicha dotsent, 1998 yili esa professor ilmiy unvoni berildi. O.Mirtazayev 2008 yili Rossiya tibbiy-teknika fanlar akademiyasining muxbir a'zosi etib saylandi.

Professor O.Mirtazayev 2000 yidan boshlab O'zbekiston Respublikasi epidemiologlar uyushmasi raisi, 15 yil mobaynida (2000-2015) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya hay'ati eksperti, Davlat Test markazida xorijiy diplomlar ni nostrifikatsiya qilish bo'yicha ekspert hay'ati a'zosi, so'nggi 20 yil mobaynida (1997-2017) sanatoriya-epidemiologiya sohasidagi vrachlarga malakaviy toifa berish bo'yicha Respublika Attestatsiya hay'ati a'zosi sifatida faoliyat olib bordi.

Omon Mirtazayevichning pedagoglik qobiliyati ular Ikkinch Toshkent Davlat tibbiyot institutida yangi birinchi epidemiologiya kafedrasini tashkil qilishda yaqqol ko'rindi. Ustoz kafedraga mudirlik qilish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Bosh epidemiologi (1995-2003), «Salomatlik» instituti direktori (2001-2005), Toshkent tibbiyot akademiyasining tibbiy profilaktika fakulteti dekani (2005-2010) lavozimlarida ham faoliyat olib bordi.

O.Mirtazayev rahbarligi ostida O'zbekistonda birinchi marotaba o'zbek tilida "Epidemiologiya dan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma" (2003), "Harbiy epidemiologiya" (2013), "Epidemiologiya-



dan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma" (2005), "Epidemiologiya" (2016), "Epidemiologiya" (2017) darsliklari chiqarildi.

Epidemiologiya fanidan yangi darslik (O.Mirtazayev, L.Zuyeva, G.Matnazarova, 2016) chiqarilgan dan so'ng kafedrada o'quv-uslubiy ishlar ancha faollashdi.

Bundan tashqari, 600 dan ortiq ilmiy ishlar, shuningdek, 4 ta monografiya, epidemiologiyadan 6 ta darslik va qo'llanmalar chop etilgan. Professor O.Mirtazayevning ilmiy maktabi doimo o'sib, kengayib bormoqda. Ularning rahbarligida 2 doktorlik, 6 nomzodlik va 10 ta magistrlik dissertatsiyalari tayyorlangan. O.Mirtazayev tomonidan 300 dan ortiq ilmiy ishlar, 5 ta darslik, 3 ta monografiya, vrachlar va talabalar uchun 15 ta qo'llanma, 20 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar va test topshiriqlari to'plami, 10 ta broshyura chop etilgan.

So'zimiz so'ngida O.Mirtazayevni kuni kecha nishonlangan Tibbiyot xodimlari kuni bilan tabriklab, o'z kasbining fidoyisi, shogirdlariga otalarcha maslahatgo'yo bo'lgan ustozga sihat-salomatlik, ishlariga rivoj tilab qolamiz.

**Gulbahor MATNAZAROVA,
Epidemiologiya kafedrasini mudiri,
t.f.d., professor,
Inobat KALNIYAZOVA,
assistant**



KUZ – BAYRAMLAR FASLI

*“Dunyoda ikkita ilm bor:
bu fiqh ilmi va tib ilmi. Qolgani hammasi kasb-hunardir”.*

Hadisi sharifdan

**Darhaqiqat, Turon
zamining eng ulug'
xilqatlaridan biri – Ona
O'zbekistonimizda tiyramoq
ya'ni ochiq oy deb ulug'langan
kuz faslimiz bayramlar bilan
birga qut-barakaga to'ladir.**

Bu faslda biz Mustaqilligimizning navbatdagi yilini, Ustoz va murabbiylar kunini, shifokorlar bayramlarini nishonlaymiz. Yil mobaynida qilingan ishlarmiz va amalga oshirgan vazifalarimiz, oldimizga qo'yilgan reja-majburiyatlarning sarhisobini qilamiz. Yanagi yilning poydevorini qo'yish uchun rejalar tuzamiz, yangi zafar va marralarni ko'zlaymiz.

Hadisi shariflarda keltirilganidek dunyoda haqiqiy ikkita ilmnинг бittasi bo'lgan tib ilmi haqiqatan ham beqiyos, insoniyatga eng foydali ilmdir. Uni asrlar mobaynida ilm va san'at darajasiga ko'targan ulug' insonlarga Gippokrat, Abulqosim Zamahshariy, Klavdiy Galen, Muhammad Zakariyo ar Roziy, Abu Ali ibn Sino, hakim Yusufiy, Shamsiddin Dunasariy, Vositxon ibn Zohidxon Shoshiyi, Alixonto'ra Sog'uniyilar kiradi. Zamonaviy meditsinamizda esa uni jahon andozalari darajasiga ko'targan akademik Vosit Vohidov, Oktam Oripov, Nabi Yusupov, Amin Sulaymonov, Sayfi Shamsiyev, Jumanazar Beknazarov, Erkin Qosimov, Azamat Shamsiyev, Abdurashid Hamroyevlardir.

Bugungi kunda akademiyamizda yuzlab professor-o'qituvchilar, oliy toifali shifokor mutaxassislar o'zbek meditsinasini ravnaqini ko'tarib, olis va yaqin xorij davlatlarida ham ma'lum va mashhur bo'lmoqda. Ularning o'zbek meditsinasiga qo'shgan hissalari beqiyos bo'lib, minglab bo'lg'usi shifokorlarning stollari ustida kundalik qo'llanma dasturulamal vazifasini bajarmoqda.

Har yilning noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi tib xodimlarining bayrami deb qabul qilinganligi ham olamshumul e'tiroflardan. Har yili bu vaqtida davlatimiz rahbari, Sog'liqni saqlash vazirligi va Akademiyamiz ma'muriyati tomonidan tibbiyotga qo'shgan hissalarini nisbatan yuqori deb baholangan tib xodimlarining bir qismi e'tirof etilib, mukofot va unvonlarga erishadilar. Bu yil ham istisno etilmasligi tayin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi



Sog'liqni saqlash vazirligi va Tibbiy turizm assotsiatsiyasi Shifokorlar assotsiatsiyasi tomonidan “O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishga qo'shgan hissasi” ko'krak nishoni ham har yili mazkur bayram arafasida munosib nomzodlarga topshiriladi.

So'nggi yillarda iqtisodiy mustaqillikka erishgan oliygohlar qatorida akademiyamizda ham sezilarli o'zgarishlar, islohotlar bo'lganligini mammuniyat bilan e'tirof etamiz. Jumladan, talabalar bilan mashg'ulot soatlarining ertaroq boshlanishi ham talaba ham o'qituvchilarning bo'sh vaqtleri ko'proq bo'lishi va bu vaqtidan unumli foydalanib, o'z ustida ishlash uchun sharoit, biz kabilarga esa xususiy shifoxonamizda bemorlarga ko'proq vaqt ajratish va ilm bilan shug'ullanish uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga yuqori bosqich talabalarining bevosita shifokor yordamchisi sifatida respublikamizning olis – yaqin hududlariga chiqarilib, onlayn mashg'ulotlariga o'tilishi ham jahon andozalariga muvofiq keladi.

Hamkasblarimizni bayram bilan qutlab, minglab xastalar dardiga darmon bo'lgan qo'llaringiz hech qachon tolmasligini, xalq salomatligi yo'lidagi ishlarining hamisha bardavom bo'lischini, barchangizga sog'lik, salomatlik, uzoq umr, oilaviy baxt va ulkan marralarni zabit etishingizga tilakdoshmiz!

Alijon FAQIROV,
Sog'liqni saqlash a'lchisi, Turon xalq yozuvchisi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Sog'liqni saqlash a'lchisi, Xalqaro antik dunyo
akademiyasi akademigi



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2022 yil noyabr)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son umumiylar va bolalar xirurgiyasi	assistant – 1,0;
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0;
3.	Normal va patologik fiziologiya	assistant – 1,0;
4.	Psixiatriya va narkologiya	assistant – 1,0;
2-son davolash fakulteti		
1.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala jarrohligi va neyrojarrohlik	assistant – 1,0;
Tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari	dotsent – 1,0;
2.	Odam anatomiyasi va OXTA	dotsent – 1,0;
3.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistant – 1,0;
4.	Reabilitologiya, xalq tibbiyoti va jismoniy tarbiya	assistant – 1,0;
5.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	dotsent – 1,0;
6.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	katta o'qituvchi – 1,0;
7.	2-son oilaviy shifokorlikda ichki kasalliklari	dotsent – 1,0;
8.	2-son ichki kasalliklar propedeftikasi	dotsent – 1,0;
9.	Bolalar kasalliklari propedeftikasi	assistant – 1,0;
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklar	assistant – 1,0;

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi